

# Koreya bilan xalqaro ilmiy aloqalar kengaymoqda

O’zR FA Materialshunoslik institutiga Koreya sanoat texnologiyalari instituti (KITECH) delegatsiyasi tashrif buyurdi.






Tashrif doirasida delegatsiya a’zolari O’zbekistondagi Katta Quyosh qurilmasining texnologik imkoniyatlari, unda sintez qilingan materiallar, Materialshunoslik instituti olimlari tomonidan ilgari surilayotgan yashil vodorod energetikasi, karbon tolalarini ishlab chiqarish, funktsional materiallar yaratish bo’yicha ishlab chiqilayotgan texnologiyalar bilan tanishdilar.

Shuningdek, vodorod energetikasi yo’nalishi bo’yicha KITECHning ilmiy markazlarida stajirovkaga yo’naltirishga tavsiya etilgan yosh olimlar bilan suhbat o’tkazildi.